



ISLOHATLAR ZAMIRIDA – MOLIYAVIY BARQARORLIK O‘ZBEKISTONDA MOLIYA TIZIMI

Ilmiy rahbar: Egamberdiyev Muzaffar

Alfraganus University Iqtisodiyot fakulteti Dotsent v.b. (PhD)

20muzaffar@mail.ru

Qodirov Abubakr Nodirxon o‘g‘li

Alfraganus University

Iqtisodiyot (tarmoqlar va sohalar) yo ‘nalishi 1- bosqich talabasi

Annotatsiya: O‘zbekistonda moliya tizimi iqtisodiyotning eng muhim omillaridan biri hisoblanadi. Chunki u mamlakatning iqtisodiy barqarorligini ta‘minlash, investitsiyalarni jalb qilish, ish o‘rinlarini yaratish va umuman, iqtisodiy o‘sishni rag‘batlantirishda bevosita ishtirok etadi. Mazkur maqolada O‘zbekiston moliya tizimining iqtisodiyotdagi o‘rni va ahamiyati, maoliya tizimining raqamlashuvi haqida batafsil ma’lumotlar o‘rin oladi.

Kalit so‘zlar: Moliya, tizimi, barqarorlik, raqamlashtirish, ochiq byudjet, loyihibar, Fuqorolar Tashabbusi Jamg‘armasi.

Аннотация: Финансовая система Узбекистана является одним из важнейших факторов экономики. Потому что он напрямую участвует в обеспечении экономической стабильности страны, привлечении инвестиций, создании рабочих мест и в целом стимулировании экономического роста. В статье представлена подробная информация о роли и значении финансовой системы Узбекистана в экономике, а также о цифровизации финансовой системы.

Ключевые слова: Финансы, система, устойчивость, цифровизация, открытый бюджет, проекты, Фонд инициатив граждан

Abstract: The financial system in Uzbekistan is one of the most important factors of the economy. Because it directly participates in ensuring the country's economic stability, attracting investments, creating jobs and, in general, stimulating economic growth. This article contains detailed information about the role and importance of the financial system of Uzbekistan in the economy, the digitalization of the financial system

Keywords: Finance, system, stability, digitalization, open budget, projects, Citizens' Initiative Foundation.

KIRISH

Bugun axborot-texnologiyalari joriy qilinayotgan sohalarda faoliyat samaradorligi oshirilmoqda. Hamda sifat ko‘rsatgichlari yuqorilamoqda, bu esa o‘z-o‘zidan ortiqcha xarajatlar kamayishiga olib keladi. Bundanda muhimi ochiqlik va shaffoflik siyosati ilgar.



surilmoqda. Davlat qo‘mitalari hamda barcha sohalarni raqamlashtirishga va aholi uchun har tomonlama qalaylik yaratishga katta e’tibor qaratilmoqda. Bugun rivojlanib borayotgan zamonaviy dunyoda kundan-kunga yangi texnologiyalar va kashfiyotlar salog‘i yuqorilamoqda. Bu esa bevosita rivojlanish davrini ochib beradi. Mamlakatimiz O‘zbekiston ham dunyoviy davlat sifatida, bunday rivojlanish va modernizatsiya muhitidan o‘z joyini egallashi kerak bo‘ladi. Buning uchun bir qancha islohatlar tezlashishi va sifati nazorat qilinishi kerak bo‘ladi. Prezident Shavkat Mirziyoyev shuning uchun mas’ul shaxslarga raqamli dasturlar va raqamli infratuzilmalarni ishlab chiqilishi haqida ko‘rsatma va topshiriqlar berdi. Aynan ushbu topshiriq yuzasidan esa “Raqamli O‘zbekiston” dasturi ishlab chiqildi. Raqamlashtirish ishlar mamlakatning ko‘plab tarmoqlarini qamrab oldi, tibbiyat, ta’lim, madaniyat va hatto davlat va jamoatchilik ishlari ham ortiqcha qog‘ozbozlikda emas raqamli dasturlarda ish boshladи. Yuqorida tilga olingan raqamlashtirilgan sohalardan iqtisodiyotning muhim tarmog‘i - Moliya tizimi ham o‘z ulariga ega.

ASOSIY QISM.

O‘zbekiston Respublikasining iqtisodiy tarmoqlari ichida eng muhim sanalgan yo‘nalish bu – Moliya tizimidir.

Moliya vazirligi haqida qisqacha: O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi 2022-yil 16-iyulda Prezidentning PF-143-son Farmoni bilan tashkil etilgan. Bu vazirlik ikkita muhim davlat organi — Iqtisodiyot va kambag‘allikni qisqartirish vazirligi va Moliya vazirligi birlashtirilishi natijasida yangidan tuzilgan yagona tizimdir.

- O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi — davlatning makroiqtisodiy siyosatini yurituvchi, byudjet siyosatini shakllantiruvchi, davlat moliyasini boshqaruvchi va raqamli moliyaviy boshqaruvni amalga oshiruvchi vakolatli davlat organidir.

Bugungi raqamlashtirish siyosatida ham moliya tizimi sifati ancha yuqori sanaladi. Masalan manuna sifatida aytildigan bo‘lsak, moliya vazirligining birgina “Ochiq byudjet axborot tizimi” orqali endi fuqorolar davlat budjeti haqidagi ma’lumotlarni to‘g‘ridan-to‘g‘ri kuzatib bora oladilar, yoki Davlat moliyasini boshqarish axborot tizimining ko‘plab vazirlik va idoralar axborot tizimlariga integratsiya qilinishi ortidan kun davomida davlat budgetiga tushadigan pullarni nazorat qilish mumkin.

Xo‘sh, moliya tizimining raqamlashtirilishi deganda biz nimani tushinamiz? Shuningdek jarayondan ko‘zlangan aniq maqsad va vazifalar nimalardan iborat? Quyida shu kabi masalalar bayon etiladi:

1. Avvallari hujjatlar yozma bayonlar orqali qog‘ozlarda aks ettirilar edi, bugungi kunda bu elektronlashtirilgan. Bu tizmlash axborot tizimlar orqali amalga oshiriladi. Bu tizim orqali – moliyaviy operatsiyalarni nazorat qilish, kuzatib borish va tezkor axborot olish natijasi yuzaga keladi.

2. Navbatdagi asosiy maqsad – barcha moliyaviy amaliyotlarni bajarish jarayonida har bir bosqichni samarali nazorat qilish, moliyaviy amaliyotlarni kuzatib borish.





Bu jarayon natijasida davlat byudjetining to‘g‘ri taqsimlanishi va o‘z vaqtida sarflanishi kabi aniq maqsad va natijalar ko‘zda tutilgan.

Shu kunga qadar moliya tizimi doirasida ko‘plab aholi uchun manfaatli bo‘lgan loyi halar ishlab chiqilgan va amaliyotga tatbiq qilingan.

1. “Ochiq byudjet” loyihasi - 2019-yil

Maqsadi:

- Davlat byudjeti daromad va xarajatlari ustidan jamoatchilik nazoratini ta’minlash;
- Fuqarolarga byudjet mablag‘larining sarflanishi haqida ochiq va tushunarli ma’lumotlar berish;
- Mahalliy byudjet mablag‘larini taqsimlashda aholining bevosita ishtirokini ta’minlash.

Vazifalari:

- Ochiq byudjet portalini yaratish va doimiy yangilab borish (<https://openbudget.uz>); (<https://openbudget.uz/>)
- Mahalliy loyihalarni fuqarolar ovozi orqali tanlash (“Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi” doirasida);
- Davlat xaridlari, soliq tushumlari, byudjet tashkilotlari xarajatlari bo‘yicha ochiq ma’lumotlarni taqdim etish.

2. “Moliya vazirligining axborot tizimi” (MIF)

Maqsadi:

- Byudjet jarayonlarini raqamlashtirish;
- Davlat moliyasini boshqarishda real vaqt rejimida nazoratni kuchaytirish;
- Byudjet tashkilotlari o‘rtasida avtomatlashtirilgan ma’lumot almashuvini yo‘lga qo‘yish.

Vazifalari:

- Yagona elektron hisob yuritish;
- Xarajat va tushumlarni avtomatik monitoring qilish;
- Hisobot va tahliliy ma’lumotlarni tezkor olish.

3. “Elektron hisob-kitoblar va shartnomalar” (E-Hisob)

Maqsadi:

- Davlat xaridlarini shaffoflashtirish;
- Budjet mablag‘laridan maqsadli foydalanishni ta’minlash;
- Soxta shartnomalar va mablag‘ talon-torojligini oldini olish.

Vazifalari:

- Shartnomalarni onlayn ro‘yxatdan o‘tkazish;
- Davlat buyurtmalari asosida tuzilgan shartnomalarni avtomatik monitoring qilish;
- Barcha darajadagi byudjet tashkilotlarining xarajat intizomini kuchaytirish.

4. “Davlat moliyaviy nazorati” tizimini takomillashtirish loyi halari

Maqsadi:

- Davlat moliyasidan foydalanish ustidan samarali nazorat o‘rnatish;



- Hisob palatasi va Ichki audit tizimlarini kuchaytirish;
- Audit natijalariga asoslanib byudjet rejalashtirish sifatini yaxshilash.

5. “Bank tizimini isloq qilish va moliyaviy inklyuziya” dasturi

Maqsadi:

- Aholining keng qatlamlarini moliyaviy xizmatlar bilan qamrab olish;
- Raqamli bank xizmatlarini kengaytirish;
- Kredit siyosatini liberallashtirish.

Vazifalari:

- Tijorat banklarining xususiylashtirilishi;
- Fintex xizmatlarini rivojlantirish;
- Kredit olish shartlarini yengillashtirish.

O‘zbekistonning moliyaviy tizimida amalga oshirilgan yirik loyihalardan biri — “Ochiq byudjet” tashabbusi bo‘lib, u byudjet mablag‘larining shaffofligi va fuqarolar ishtirotini ta’minlashga qaratilgan. Quyida ushbu loyiha doirasida amalga oshirilgan real misollar va statistik ma’lumotlar keltiriladi.

1. Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi (FTJ) orqali moliyalashtirilgan loyihalar:

Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi doirasida fuqarolar o‘z hududlarida muhim deb hisoblagan loyihalarga ovoz berish orqali byudjet mablag‘larining taqsimlanishida ishtirok etishadi. Misol uchun:

- 2024-yilda FTJ orqali 10 000 dan ortiq loyiha moliyalashtirilgan bo‘lib, bu loyihalarning umumiy qiymati 1,5 trillion so‘mni tashkil etgan.
- Eng ko‘p ovoz to‘plagan loyihalar orasida maktablar, bolalar bog‘chalari va tibbiyot muassasalarini ta’mirlash, ichimlik suvi ta’mintoni yaxshilash kabi ijtimoiy ahamiyatga ega tashabbuslar mavjud.

2. Davlat xaridlari va byudjet xarajatlarining shaffofligi

“Ochiq byudjet” portali orqali davlat xaridlari va byudjet xarajatlari bo‘yicha ma’lumotlar ochiq e’lon qilinadi. Masalan:

- 2024-yil davomida portalda 100 000 dan ortiq davlat xaridi bo‘yicha ma’lumotlar joylashtirilgan.
- Har bir xarid bo‘yicha shartnoma summasi, pudratchi tashkilot nomi va xarid qilinayotgan tovar yoki xizmat turi ko‘rsatilgan.

3. Mahalliy byudjetlarning ochiqligi

Mahalliy byudjetlar bo‘yicha ma’lumotlar ham portalda e’lon qilinadi. Bu orqali fuqarolar o‘z hududlaridagi byudjet daromadlari va xarajatlari haqida ma’lumot olishlari mumkin. Misol uchun:

- Toshkent shahrida 2024-yil uchun mahalliy byudjet daromadlari 3 trillion so‘m, xarajatlari esa 2,8 trillion so‘mni tashkil etgan.
- Xarajatlar tarkibida eng katta ulush ta’lim, sog‘liqni saqlash va infratuzilma sohalariga to‘g‘ri kelgan.



Quyidagi grafiklar orqali “Ochiq byudjet” loyihasi doirasida amalga oshirilgan ishlar bo‘yicha statistik ma’lumotlarni ko‘rishingiz mumkin:

**FTJ orqali moliyalashtirilgan loyihalari soni va umumiyligi qiyomini (2020/2024-yillar):
(1-rasm)**

Yil	Loyihalar soni	Umumiyligi qiyomni (mlrd so‘m)
2020	2 500	350
2021	4 000	600
2022	6 500	900
2023	8 000	1 200
2024	10 000	1 500

**2.Davlat xaridlari bo‘yicha e’lon qilingan ma’lumotlar soni (2020 –2024-yillar):
(2-rasm)**

Yil	Davlat xaridlari soni
2020	20 000
2021	40 000
2022	60 000
2023	80 000
2024	100 000

O‘zbekistonda moliyaviy boshqaruvi tizimini raqamlashtirish so‘nggi yillarda islohotlarning eng muhim yo‘nalishlaridan biriga aylandi. Bu jarayon davlat byudjeti, moliyaviy nazorat, soliq siyosati va bank sektorida shaffoflikni ta’minlash, samaradorlikni oshirish va korrupsiya xavfini kamaytirishga xizmat qilmoqda. “Ochiq byudjet” portalı, elektron hisob-kitob va shartnomalar tizimi, moliyaviy axborot tizimlari kabi loyihalari orqali fuqarolarning davlat mablag‘lari ustidan jamoatchilik nazoratini amalga oshirishi uchun imkoniyatlar yaratildi.



Xulosa qilib yakunlaganda, Raqamli texnologiyalar yordamida moliyaviy axborotlar real vaqt rejimida tahlil qilinmoqda, bu esa davlat boshqaruv organlariga tezkor va asosli qarorlar qabul qilish imkonini bermoqda. Bank sektori va fintex xizmatlarining kengayishi esa aholining moliyaviy xizmatlardan foydalanish imkoniyatini oshirdi. Kelgusida bu yo‘nalishda blokcheyn, sun’iy intellekt va “Big Data” texnologiyalarini joriy etish orqali moliyaviy boshqaruvda innovatsion yondashuvlar yanada kuchaytiriladi.

Shunday qilib, moliya tizimini raqamlashtirish O‘zbekistonda iqtisodiy rivojlanish va davlat boshqaruvining yangi bosqichga o‘tishida muhim omil bo‘lib xizmat qilmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

- 1.** 2022-yil 16-iyulda Prezidentning PF–143-son Iqtisodiyot va Moliya vazirligini tashkil etish haqida farmoni
- 2.** O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 22-maydag‘i PQ-4312-sonli “Byudjet jarayonlarining ochiqligini ta’minlash va fuqarolar ishtirokini kengaytirish bo‘yicha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori
- 3.** O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi rasmiy sayti – <https://www.mf.uz> (<https://www.mf.uz/>)
- 4.** “Ochiq byudjet” portalı – <https://openbudget.uz> (<https://openbudget.uz/>)
- 5.** O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi – <https://stat.uz> (<https://stat.uz/>)
- 6.** “Moliya” fani bo‘yicha o‘quv qo‘llanma. Tahrir hay’ati: I.Karimov nomidagi Toshkent Davlat Iqtisodiyot universiteti, 2022-yil
- 7.** Jahon banki – “Digital Government and Financial Management Reform in Uzbekistan”, World Bank Report, 2021
- 8.** Asia Development Bank (ADB) – “Strengthening Public Financial Management in Uzbekistan”, 2023
- 9.** “Raqamli iqtisodiyot: nazariya va amaliyot” – O‘zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligi nashri, 2021-yil

